

**ZAMONDOSH OBRAZ MUAMMOSI
(TOG‘AY MUROD IJODI MISOLIDA)****Sardor Jo‘raqulov,***Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistranti**joraqulovsardor33@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamondosh obrazning nazariy mohiyati integrativ yondashuv asosida yoritiladi. Adabiyotshunoslikda ushbu obraz turining ijtimoiy, psixologik va empirik jihatlari ko‘pincha alohida talqin qilinadi. Maqolada esa ular yagona konsept doirasida birlashtiriladi. Xususan, Georg Lukacsning ijtimoiy tip nazariyasi, Sigmund Freudning psixologik yondashuvi hamda Hippolyte Tainening muhit va davrga asoslangan qarashlari metodologik asos sifatida olinadi. Ushbu nazariy model Tog‘ay Murod asarlari misolida amaliy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘z: Zamondosh obraz, badiiy obraz, ijtimoiy tip, prototip, psixoanaliz, realizm, sotsiologik yondashuv, ijodkor laboratoriyasi, Tog‘ay Murod, o‘zbek nasri.

Abstract. This article illuminates the theoretical essence of the contemporary character based on an integrative approach. In literary criticism, the social, psychological, and empirical aspects of this character type are often interpreted separately. However, this article unites them within a single conceptual framework. Specifically, the theory of social type by Georg Lukacs, the psychological approach of Sigmund Freud, and the views of Hippolyte Taine, which are based on environment and era, are adopted as the methodological foundation. This theoretical model is substantiated through a practical analysis of the works of Toghay Murod.

Keywords: Contemporary character, literary character, social type, prototype, psychoanalysis, realism, sociological approach, creative laboratory, Toghay Murod, Uzbek prose.

Аннотация. В данной статье теоретическая сущность современного образа освещается на основе интегративного подхода. В литературоведении социальные, психологические и эмпирические аспекты данного типа образа часто интерпретируются раздельно. В статье они объединены в рамках единого концепта. В частности, в качестве методологической основы берутся теория социального типа Георга Лукача, психологический подход Зигмунда Фрейда и взгляды Ипполита Тейне, основанные на среде и времени. Данная теоретическая модель практически обоснована на примере произведений Тогай Мурада.

Ключевые слова: Образ современника, художественный образ, социальный тип, прототип, психоанализ, реализм, социологический подход, творческая лаборатория, Тогай Мурад, узбекская проза.

Kirish. Adabiyotshunoslik ilmida eng ko‘p muhokama qilinadigan problema bu obraz muammosi sanalishi sir emas, olim V.Sherbina obrazga to‘xtalar ekan “*Вокруг этой основной проблемы концентрируются все другие проблемы*” [7: 3] (Boshqa barcha muammolar shu muammo atrofida jamlangan. Obraz nazarda tutilyapti S.J), xuddi shu kabi “zamondosh obraz” tushunchasi keng qo‘llanilishiga qaramay, uning nazariy chegaralari va metodologik asoslari hanuz to‘liq aniqlashtirilmagan. Xususan, mazkur obrazning prototip bilan munosabati, ijtimoiy tip sifatidagi mohiyati hamda ijodkorning ichki tajribasi bilan bog‘liqligi turli maktablarda alohida-alohida talqin qilinadi, biroq ularning yagona integrativ modeli yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu bois zamondosh obrazni bir vaqtning o‘zida ijtimoiy, psixologik va empirik hodisa sifatida ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keladi. Mazkur muammoni hal etishda, avvalo, realizm va marksistik

estetika vakillarining qarashlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Georg Lukach tomonidan ilgari surilgan "Typical characters in typical circumstances" [2:78] ("Tipik xarakterlar – tipik sharoitlarda") formulasi badiiy obrazning individual emas, balki tarixiy-ijtimoiy umumlashma ekanini ko'rsatadi. Bu yondashuvni Vissarion Belinskiy fikri yanada to'ldiradi: "Искусство есть воспроизведение действительности"[5:65] ("San'at – bu voqelikning qayta yaratilishidir" tarjima bizniki S.J), ya'ni obraz real hayotning bevosita nusxasi emas, balki uning estetik transformatsiyasidir. Shu bilan birga, obrazni faqat ijtimoiy mahsul sifatida talqin qilish yetarli emas, chunki unda muallifning ichki ruhiyati ham muhim o'rin tutadi. Bu jihatni Sigmund Freud quyidagicha ifodalaydi: "Creative writers are always day-dreamers" ("Ijodkorlar doimo xayolparastlardir" tarjima bizniki S.J), ya'ni badiiy obraz muallif ongidagi ichki kechinmalar va ong osti jarayonlarining ifodasidir. Boshqa tomondan, obrazning hayotiy asoslarini tushuntirishda Hippolyte Taine konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u "Race, milieu, moment" ("Irq, muhit, davr" izoh bizniki S.J) triosi orqali har qanday badiiy hodisaning ijtimoiy-madaniy shartlanganligini asoslaydi. Mazkur nazariy qarashlarni uyg'unlashtirish shuni ko'rsatadiki, zamondosh obraz nafaqat davr mahsuli, balki ijodkor tafakkuri va real kuzatuvlar sintezidir. Demak, zamondosh obrazni kompleks yondashuv asosida talqin qilish, ya'ni uni ijtimoiy tip, psixologik transformatsiya va empirik asos birligida o'rganish mazkur maqolaning asosiy metodologik yo'nalishini belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi. O'zbek adabiyotshunosligida zamondosh obrazini yaratish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida ilmiy muammo sifatida o'rganila boshladi. Bu jarayon, avvalo, milliy nasrda shaxs va jamiyat munosabatlarini badiiy talqin qilishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bilan bog'liqdir. Zamondosh obrazini badiiy-estetik jihatdan tadqiq etishda o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Adabiyotshunos olimlar zamondosh obrazining shakllanishi, uning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasi hamda davr ruhini aks ettirishdagi badiiy vositalarni turli jihatlardan tahlil qilganlar. Jumladan, adabiyot nazariyasiga oid ishlarda zamondosh obrazining tipologik xususiyatlari, qahramon xarakterining tarixiylik va zamonaviylik bilan uyg'unligi masalalari yoritilgan. Bu borada o'zbek adabiyotshunosligida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar zamondosh obrazini ijtimoiy voqelik bilan uzviy bog'liq holda talqin qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida zamondosh obrazining yangi talqinlari ayniqsa nasr janrida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu davrda insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, ma'naviy izlanishlari va ijtimoiy muammolarini badiiy ifodalash masalasi dolzarb mavzuga aylandi. Shu nuqtai nazardan, Tog'ay Murod ijodi o'zbek nasrida zamondosh obrazini yaratish borasida alohida bosqichni tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda zamondosh obraz muammosini o‘rganishda adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy metodlari majmuasidan foydalanish nazarda tutiladi. Tadqiqot metodologiyasi badiiy matnni kompleks tahlil qilishga asoslanadi. Tarixiy-tipologik metod orqali zamondosh obrazining tarixiy taraqqiyot jarayoni, uning turli davrlarda shakllanish xususiyatlari hamda adabiy an‘ana va yangilanish jarayonlari tahlil qilinadi. Bu metod zamondosh obrazining davr bilan bog‘liqligini aniqlash imkonini beradi

Natijalar. Polyak adabi Yan Parandovskiy “Eng go‘zal poema – uning tuzilishi va o‘z ijodkori hayotidagi barcha voqealar silsilasida rivoj topgan ijod tarixidir” degan ta‘rifiga tayansak va yozuvchi ijod laboratoriyasini kuzatsak har qanday ijodkor obraz yaratishda kimdandir ta‘sirlanadi. Adabiyotshunos B.Karimov ushbu jarayonga to‘xtalar ekan “Badiiy asar uchun jamiyatdagi muayyan shaxslar prototip vazifasini o‘tashi tabiiy” [4:69] degan fikrni aytsa, yana bir o‘rinda Qodiriy laboratoriyasiga doir fikrlarida: “Zotan Abdulla Qodiriyning bu tipdagi Isoq domla, Polvon, Salim o‘g‘ri, Zokir o‘g‘ri, Nosir o‘g‘ri, Badir o‘g‘ri kabi o‘nlab “oshnolari”, bir guruh “ulfatlari” bo‘lganini yozadi”, [4:68] deya Abdulla Qodiriyning yaratgan obrazlar genezesiga to‘xtaladi. Xo‘sh, ijodkor badiiy asar uchun ta‘sirlangan har qanday kishi “zamondosh obraz” degan ta‘rifga mos tushadimi?

Tog‘ay Murod ijodida zamondosh obrazlar tizimi an‘anaviy nazariyalarda berilgan, umumiy talqinlardan farqli ravishda aniq empirik asosga tayanishi bilan ajralib turadi. Xossatan, “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi Aqrab qo‘rboshi obrazi yozuvchining tog‘asi Muhammad qo‘rboshi bilan bog‘liq bo‘lib, u mustamlakachilikka qarshi kurashgan tarixiy shaxs sifatida real asosga ega. Biroq badiiy matnda ushbu obraz individual biografik doiradan chiqib, milliy ozodlik g‘oyasini ifodalovchi ijtimoiy tip darajasiga ko‘tariladi. Xuddi shuningdek, Bolxin momo obrazi ham real shaxs asosida yaratilgan bo‘lib, unda o‘zbek ayoliga xos sabr, matonat va sadoqat kabi xususiyatlar umumlashtiriladi. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidagi Bo‘ri polvon obrazi yozuvchining otasi timsoli bilan bog‘liq bo‘lsa-da, asarda u jismoniy qudrat va insoniy oriyatni mujassam etgan obraz sifatida talqin qilinadi. “Ot kishnagan oqshom” qissasidagi Ziyodulla obrazi esa kundalik hayotdan olingan oddiy inson bo‘lib, unda zamondosh kishining tabiiyligi va hayotiyliigi aks etadi. Mazkur obrazlarning barchasi real shaxslar bilan bog‘liqligiga qaramay, badiiy tafakkur jarayonida qayta ishlanib, muayyan davrning ijtimoiy va ruhiy manzarasini ifodalovchi tip darajasiga ko‘tariladi.

Adabiyotshunoslikda obraz masalasi ko‘plab olimlar tomonidan turlicha izohlangan. Jumladan, Dilmurod Quronov obrazni hayot haqiqatining badiiy tafakkur orqali qayta yaratilgan shakli sifatida talqin etadi, bu esa real voqelikning san‘at qonunlari asosida transformatsiyalanishini anglatadi. G‘arb adabiyotshunosligida Erich Auerbach realizmni “the serious representation of everyday reality” (“kundalik hayotning jiddiy badiiy ifodasi” izoh bizniki S.J) deb baholab, zamondosh obrazning oddiy inson hayoti bilan

uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Rus formal maktabi vakili Viktor Shklovsky esa badiiylikni "ostranenie" ("begonalashtirish") tamoyili orqali izohlab, real voqelikning san'atda yangicha idrok etilishini asoslaydi. Shuningdek, o'zbek adabiyotshunosligida zamondosh obraz odatda ijodkor yashagan davr kishilarining badiiy ifodasi sifatida ta'riflanadi. Bu ta'rif Uzoq Jo'raqulov va boshqa olimlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanib, obrazning davr bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Tog'ay Murod ijodida zamondosh obrazlar empirik (biografik) asosdan boshlanib, badiiy umumlashtirish jarayonida ijtimoiy tip darajasiga ko'tariladi. Bu jarayonda yozuvchi real shaxsni aynan ko'chirmaydi, balki uni psixologik va estetik transformatsiya orqali qayta yaratadi. Natijada obraz nafaqat individual xususiyatlarni, balki davrning ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy muammolarini ham o'zida mujassam etadi. Demak, zamondosh obraz yozuvchi ijodida tashqi voqelik, ichki ruhiy tajriba va badiiy tafakkur uyg'unligida shakllanuvchi murakkab estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Obraz uchun turli shaxslar protip vazifasini o'tasada, qachonki u adabiy tip darajasiga ko'tarilsagina "zamondosh obraz" deya ta'riflash to'g'ri bo'ladi, fikrimizcha. Tog'ay Murod ijodida zamondosh obraz ijodkorning ijtimoiy tajribasi, ichki ruhiyati va hayotiy kuzatuvlari sintezi sifatida talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. For Hippolyte Taine. Histoire de la Litterature Anglaise
2. Lukács: Horizons and Implications of the "Typical Character" (1986)
3. Romantik und Realismus." In *Erich Auerbach*. Trembl, and Barck, eds. 1930, pp. 426–438.
4. Абдулла Қодирий феномени. Монография. Б.Карим
5. *Евг. Соловьев, В. Г. Белинский в его письмах и сочинениях (1810–1848)*. Спб., 1898 г., стр. V.
6. *Шкловский В.* Гамбургский счет. Л.: Издательство писателей, 1928. С. 13.
7. Щербина В. Наш современник. Концепция человека в литературе XX столетия. - М., 1964. - С. 3
8. Ян Парандовский. Сўз кимёси: Бадиа, эсселар. О. Шарофиддинов, М. Акбаров таржимаси.